

PUDRAT SHARTNOMASI № 25

Zangiota tumani

"01" avgust 2022 yil

Matnning keyingi o'rinlarida "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Zangiota tumani yodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshliq Sh.Razzoqov, bir tomondan va matnning keyingi o'rinlarida "Pudratchi" deb yuritiladigan MCHJ FREIGHT SERVICES midan Nizom asosida faoliyat yurituvchi S.X.Akilov ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentabrdagi PQ-5250-sonli qaroriga muvofiq mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq 2022 yil manzilli dasturiq kiritilgan Zangiota tumani Olmazor MFY Muqumiy-2, Ziyo ko'chalari (to'liq asfaltlash) joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar tanlov savdosi natijasida tanlovlari qilingan va tanlov komissiyasining qarori (№124920 27.07.2022yildagi bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy ishlar arxlarida 984 937 004 (to'qqiz yuz sakson to'rt million to'qqiz yuz o'ttiz yetti ming to'rt) so'm shu jumladan, QQS 15% 128 470 044 so'm 00 tiyinni tashkil etadi.

III. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

mazkur shartnoma bo'yicha obyektни foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab ikki kunlik muddatda ta'mirlash maydonini o'ziga tegishli qurilish nashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, qurilish materiallari hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan ob'ektlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

5. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun maydonni Pudratchiga berish, tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Shartnomaga muvofiq avans va boshqa joriy to'lovlarni moliyalashtirishni amalga oshirish; shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

V. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

6. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha oldindan shartnoma summasining 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi, bu 295 481 101 so'm 20 tiyinni tashkil etadi.

7. Ta'mirlanayotgan obyektning qolgan 70 foiz to'lovi ishlar tugallangandan so'ng, obyekt buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olingandan keyin hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

VI. ISHLARNI BAJARISH

8. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaga muvofiq obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

9. Pudratchi o'zi tomonidan ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikasiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

10. Agar Buyurtmachi Pudratchi tomonidan hisob-faktura tasdiqlangan kundan boshlab, 1 yil (12 oy) ichida ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchini bilan va qurilish ishlari qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida Buyurtmachiga yetkazilgan zararlarni to'laydi.

11. Pudratchi obyektida ishlarni tugatib bo'lgandan so'ng obyektning laboratoriya tekshiruvidan o'tkazadi.

12. Pudratchi obyektida ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng ishlarni qurilish obyektini nazorat o'lehoivi tekshiruvidan o'tkazadi.

13. Shartnoma:

milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda – tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik erkin ayriboshlash valyutasiga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda – shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

15. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 10 kunni tashkil etadi.

VII. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

14. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

15. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

16. Agar, ushbu holatda tomonlar bir oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

VIII. TARAFLARNING KORRUPTSIYAGA QARSII KURASHISH BO'YICHA MA'SULIYATI

17. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

18. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar (harakatsizlik) ga yo'l qo'ymaydilar.

19. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish

20. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

21. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

22. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

IX. TA'MIRLANISHI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH

23. Ta'mirlash tugallangan ob'ektni qabul qilib olish amaldagi tartibga muvofiq shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, ta'mirlash tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

X. KAFOLATLAR

24. Pudratchi:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

barcha bajarilgan qurilish ishlari uchun hisob-faktura tasdiqlangan kundan boshlab 12 oy (1 yil) kafolat berishi;

ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni kafolatlaydi.

XI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

25. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

26. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

27. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

28. Pudratchi obyektни o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

29. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

30. Mazkur shartnoma shartlarini bajarishda va bekor qilishda, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar qonunchilikda nazarda tutilgan, sudgacha bo'lgan tartibda hal etolmasa, ushbu nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

XIII. ALOHIDA SHARTLAR

31. Mazkur shartnoma imzolagandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

32. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, yozma shaklda rasmiylashtirilib va tomonlar imzolagandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

33. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzilib, Moliya Vazirligining G'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabriga qadar amal qiladi.

XIV. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Buyurtmachi:

Obodonlashtirish boshqarmasi

Manzil: Eshonguzar MFY ijodkorlar ko'chasi 7 uy

Sh.XR: 401722860282377065200110006

INN: 200 567 813 OKONX: 90211

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

X/R 23 402 000 300 100 001 010

MB Toshkent sh. BB XKKM

MFO: 00014 INN 201 122 919

Kaxbar: SH.Razzoqov

Imzo

M.O

Pudratchi:

MCHJ «FREIGHT SERVICES»

Manzil: Toshkent shahar Uchtepa tumani

Ko'rkamobod MCF Ko'rkam ko'chasi 2-44,1-13

P/c 2020 8000 9049 8500 4001

AKIB«Ipoteka bank» Mirobod f-li

MFO: 00420 INN: 302 335 775

tel: 098 94 686 49-99



S.X.Akilov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI

ZANGIOTA TUMAN ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

111800, Zangiota tumani, Eshonguzar qo'rg'oni, Mustaqillik ko'chasi, 44-uy.
tel: (99870) 9753335. el. pochta: zangiota-t@adliya.uz

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN NORMALARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

UN04721403

1. Loyihaning turi:

Xo'jalik shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

25-sonli shartnoma (Zangiota tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda «FREIGHT SERVICES» MCHJ o'rtasida tuzilgan Olmazor MFY Muqumiy-2, Ziyo ko'chalarini to'liq asfaltlash pudrat shartnoma)


3. Hujjat ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Zangiota tuman obodonlashtirish boshqarmasi. Loyiha Zangiota tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 01.08.2022-yilda xulosa berish uchun kelib tushdi.

XULOSA

Mazkur hujjat loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:



I.G'.Quchqorov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 124920 на приобретение Зангиота тумани
Олмазор МФЙ кучасини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 27.07.2022

Время рассмотрения 27.07.2022 10:36

Конкурсная комиссия Зангиота тумани Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RAZZAKOV SHAHZOD ABDUSIKUROVICH	рахбар	Коммисия раиси
Секретарь комиссии	TURSUNOV DONIYOR ORTIQBOYEVICH	МЕХАНИК	ОБОДОН
Член комиссии	RAXIMOV KAXRAMON TOJIBOYEVICH	Техник	Котиб
Член комиссии	UMARALIYEV ABDULLAJON NISHONALI O'G'LI	Главни инженер	аъзо
Член комиссии	ASOMOV AZIZ ASATILLAYEVICH	Obodonlashtirish abe'ktlarini saqlash bo'lin boshlig'	komisiya a'zosi
Член комиссии	MIRZARAXIMOV JAHONGIR BAHODIROVICH	infira tuzulma bo'limi bo'lim boshlig'	a'zol

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 27.07.2022 года № лота 124920.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 85.00 / Весовой коэф. ценовой части: 15.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	ЗАНГОТА ТУМАНИДА ОЛМАЗОР МФЙДА МУКУМИ-2 ВА ЗИЁ КУЧАСИНИ ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАШ ВА АСФАЛТЛАШ
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	990 050 713.00
Стартовая сумма	990 050 713.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган машина ва механизм ҳамда техник воситалари рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойихани бажариш учун зарур бўлган, (лизинг ёки ижара шартномаси асосида) қурилиш машина ва механизмлар мавжудлиги, жумладан: Юк кўтариш куввати 10 тоннадан кам бўлмаган бортли ўзиағдарувчилар (автомобили самосвалы) - 2 дона; Асфальтётқизгич (асфальтоукладчик) кенглиги 6,5 метргача- 1 дона Хар хил зичлагичлар (катки дорожные вибрационные) - 2 дона Автогрейдер - 1 дона, Ювиш машинаси (поливомоечные) - 1 дона Лойихани бажариш учун зарур бўлган 10 бирликдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларининг (виброплиты, резчики швов дисковые, гудранаторы ручные и тд) мавжудлиги (хар бир механизм

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ZANGIOTA TUMAN YO LLARDAN	20	5 шакл	14.8	Экспертная		
ООО FREIGHT SERVICES	20	20	19.1	Экспертная		
ООО J-I SERVICE	20	техник воситалари рўйхати	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
APOLLON JB MCHJ	20	20	13.5	Экспертная		
"BEK-TO'RA SULTON" MCHJ	20	903764258	2	Экспертная		
ООО SOF IBRAT	20	895715553	0	Экспертная	Дисквалифицирован	

Критерий №2 Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Қурилишда иш тажрибаси 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли, мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги 3 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга инженер-техник ходимлар (участка бошлиқлари, участка усталари) ходимларни мавжудлиги Ишлаб чиқариш техника бўлимида иш тажрибаси 3 йилд кам булмаган дипломли мутахассис мавжудлиги Доимий равишда ишловчи 10 тадан кам бўлмаган малакли ишчил мавжудлиги Меҳнатни муҳофаза қилиш ва техника хавфсизлиги мутахассиси 1 киши

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ZANGIOTA TUMAN YO LLARDAN	19	1 шакл	19	Экспертная		
ООО FREIGHT SERVICES	19	19	19	Экспертная		
ООО J-I SERVICE	19	иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
APOLLON JB MCHJ	19	19	11	Экспертная		
"BEK-TO'RA SULTON" MCHJ	19	903764258	15	Экспертная		
ООО SOF IBRAT	19	895715553	4	Экспертная		

Критерий №3 Қурилиш (таъмирлаш) майдонини (объектининг) кўзлан кечирганлиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Қурилиш (таъмирлаш) майдонини (объекти) кўздан кечирганлиги ва ўрганиб чиққанлиги тўғрисида маълумотнома, объектни камида 4 дона расми билан бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ZANGIOTA TUMAN YO LLARDAN	2	6-шакл	2	Экспертная		
ООО FREIGHT SERVICES	2	2	1	Экспертная		
ООО J-I SERVICE	2	кўзлан кечирганлиги тўғрисида маълумотнома	2	Экспертная		
APOLLON JB MCHJ	2	2	1	Экспертная		
"BEK-TO'RA SULTON" MCHJ	2	903764258	0	Экспертная	Дисквалифицирован	
ООО SOF IBRAT	2	895715553	2	Экспертная		

Критерий №4 Энг яхшп таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи

Тип: Текстовое значение

Описание: Асосий воситаларнинг колдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп; Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги; Охирги йилда 100 млн. сўм ва ундан юқори фойдаси (солик тўлангунга кадар) мавжудлиги; Иш хақи фонди 100 млн. сўм ва ундан юқори (ДСИ ва статистика бўлимларига топширилган ва тасдиқланган ҳисоботлар илова қилинади); Тўловга кодирлилик ёки қоплаш коэффиценти 1,25 ва ундан юқори бўлиши; Уз айланма маблаглари билан таъминланганлик коэффиценти 0,2 ва ундан юқори бўлиши; Объектнинг буюртмачи белгиланган бошлангич нархининг 20% миқоридаги айланма маблаглар мавжудлиги (хизмат кўрсатув

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ZANGIOTA TUMAN YO LLARDAN	34	2-3 шакл	28	Экспертная		
ООО FREIGHT SERVICES	34	34	34	Экспертная		
ООО J-I SERVICE	34	молиявий аҳволи	12	Экспертная		
APOLLON JB MCHJ	34	34	30	Экспертная		
"BEK-TO'RA SULTON" MCHJ	34	903764258	19	Экспертная		
ООО SOF IBRAT	34	895715553	17	Экспертная		

Критерий №5 Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлашдаги ўхшаш ишларни (автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш, жорий ва мукамал таъмирлаш) ўз кучи билан бажариш; йилига 500,0 млн.сўм (буюртмачи бошлангич нархининг 50%) ва ундан кўп. (хар бир йил 5 балл билан баҳоланади) Энг яхши таклифларни танлаш савдосига ўхшаш профил бўйича охирги 3 йилда ўз кучи билан бажариш,(ҳисоб- фактуралар илова қилинган ҳолда)

Обязательность: Критично

Компонент (наименование)	Код	Техническое наименование	Единица измерения	Год	Тип	Техническое описание	Техническое описание
100	100	100	100	100	100	100	100
200	200	200	200	200	200	200	200
300	300	300	300	300	300	300	300
400	400	400	400	400	400	400	400
500	500	500	500	500	500	500	500
600	600	600	600	600	600	600	600

Оборудование/услуги/информационные ресурсы/материалы

Код	Наименование	Описание	Единица измерения	Год	Тип	Техническое описание	Техническое описание
100	100	100	100	100	100	100	100
200	200	200	200	200	200	200	200
300	300	300	300	300	300	300	300
400	400	400	400	400	400	400	400
500	500	500	500	500	500	500	500

Источники информации

Код	Наименование	Описание	Единица измерения	Год	Тип	Техническое описание	Техническое описание
100	100	100	100	100	100	100	100
200	200	200	200	200	200	200	200
300	300	300	300	300	300	300	300
400	400	400	400	400	400	400	400
500	500	500	500	500	500	500	500
600	600	600	600	600	600	600	600
700	700	700	700	700	700	700	700
800	800	800	800	800	800	800	800

Список источников информации, использованных при выполнении работы. Включает ссылки на литературу, электронные ресурсы, сайты, рефераты, статьи, книги, диссертации и другие документы.

Список литературы

1. Ссылка на источник информации.

Итого: _____

Член комиссии	RAKIMOV KANRAMON TOJIBOYEVICH	Согласен
Член комиссии	UMARALIYEV ABDULLAJON NISHONALI O'G'LI	Согласен
Член комиссии	ASOMOV AZIZ ASATILLAYEVICH	Согласен
Председатель комиссии	RAZZAKOV SHAXZOD ABDUSHIKUROVICH	Согласен
Член комиссии	MIRZARAKIMOV JAHONGIR VAHODIROVICH	Согласен

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«ТАСЛИҚЛАЙМАН»

Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси
бошлиғи Ш.А.Раззоқов

Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси унга қарашли йўллар Зангиота тумани Олмазор МФЙ Муқимий-2 ҳамда Зиё кўчаларини жорий тамирлаш ва асфалтлаш хизмат кўрсатувчи ташқилотлар ўргасида ўтказилган танлаш бўйича харид комиссиясининг йиғилиш

БАЁНИ

Зангиота тумани

29.07.2022 йил

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тугрисида”ги 684-сонли қонунига мувофиқ ва Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармасининг 2022 йил 5 июл № 20 А-сонли буйруғи асосида тайинланган харид комиссия таркиби
Йиғилиш раиси: Ш.А.РАЗЗОҚОВ

Давлат харидлари бўйича комиссия аъзолари:

1. Қ.Т.РАХИМОВ
2. А.Н. УМАРАЛИВ
3. А.А.АСАМОВ
4. Ж.Б. МИРЗАРАХИМОВ

Йиғилиш котиби - Д.О.Турсунов

Давлат Харидлари бўйича комиссия йиғилиши ўтказилди.

КУН ТАРТИБИ:

1. Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси ва унга қарашли Олмазор МФЙ Муқимий-2 ҳамда Зиё кўчаларини жорий таъмирлаш бўйича белгиланган тартибда шартнома тузиш
2. Давлат харидлари бўйича комиссиянинг 2022 йил 27 июлдаги 124920-сонли электрон баённомасини муҳокама қилиш тўғрисида
Кўрилган масала: Комиссия раиси сўзга чиқиб, раҳбарият томонидан 27.07.2022 йилда 22110012124920-сонли лот билан Ўзбекистон хом-ашё биржасининг электрон порталига Зангиота туман Ободонлаштириш Бошқармаси ва унга қарашли Олмазор МФЙ Муқимий-2 ҳамда Зиё кўчаларини жорий таъмирлаш хизматлари учун эълон жойлаштирилганлигини ва эълон мuddаги туғатгандан сўнг комиссия аъзолари томонидан электрон баённома расмийлаштирилиб **ООО FREIGHT SERVIS** ғолиб деб аниқланганлиги айтиб ўтди.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тугрисида”ги 684-сонли Қонуннинг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш кун давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча тақлифлар келиб тушмаганлиги таъкидлаб ўтилди ва комиссия аъзолари томонидан

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 27-июндаги электрон баённомасига асосан ғолиб **ООО FREIGHT SERVIS** билан Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси ва унга қарашли Олмазор МФЙ Муқимий-2 ҳамда Зиё кўчаларини жорий таъмирлаш хизматлари учун қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

Давлат харидлари бўйича комиссия аъзолари:

1. Қ.Т.РАХИМОВ
2. А.Н. УМАРАЛИВ
3. А.А.АСАМОВ
4. Ж.Б. МИРЗАРАХИМОВ
5. Д.О.Турсунов